O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda davlat siyosati xususida G'.H.Qudratov tadqiqot ishlarini olib borgan. Iqtisodchi olim turizmni rivojlantirish, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi uchun shart-sharoitlar yaratish, turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish siyosati, malakali kadrlar tayyorlash, tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida keng imkoniyatlar yaratishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib bergan[6].

I.S.Tuxliyev o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida turizmning zamonaviy kadrlar tayyorlash bo'yicha tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqligini asoslab bergan [7].

Malakali kadrlar tayyorlashda uning ta'lim sifati bilan bog'liq jihatlari, unga ta'sir etayotgan omillarni baholash masalalariga M.M.Muxammedov "Ta'lim - taraqqiyot tayanchi" nomli maqolasida qimmatli ilmiy tavsiya va takliflarini izohlab bergan. Olimning ta'kidlashicha, ta'lim

³⁷⁸ <https://lex.uz/mact/-512233>

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



sifatini tubdan yaxshilashning yakkayu-yagona yo'li – mamlakatda shaffof, sifatli bilimni rag'batlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantirishdan iborat degan yondashuvni bildirgan [8].

Iqtisodchi olim D.X.Aslanovanning tadqiqotlaridan olingan natijalarga muvofiq, jahonda globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi va ilmiy ko'p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustun rivojlanishi sharoitida har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi va aholi turmush sifati oshishining zaruriy sharti yuqori malakali kadrlarni tayyorlash darajasi bilan belgilanadi.

Iqtisodchi olim B.Sh.Safarov o'z tadqiqotida milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borib, turistik-rekreatsion klaster modelini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini asoslash hamda iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishda yuqori malakali kadrlarning roli xususidagi masalalarga e'tibor qaratgan [9].

Yosh iqtisodchi olimlarimizdan N.S.Ibragimov malakali kadr (gid misolida) turizm hududi raqobatbardoshligining umumiy konseptual andozasi hamda turizm hududlarining iyerarxik tipologiyasi nazariyasi asosida raqobatbardoshlikning mono, mini, mikro, meta, mezo, makro, mega ko'lamli va darajasi, shuningdek, 7M konseptual modeli ishlab chiqishda o'z o'rniga ega ekanligini isbotlab bergan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mehmonxona va joylashtirish vositalari fondi o'sish dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar, sohada sifatli xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda sayyohlik oqimining jadal o'sishi munosabati bilan turizm xizmatlari sohasida malakali kadrlar bilan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitida dunyo mamlakatlarining aksariyati turizm xizmatlari sohasini mamlakatdagi malakali kadr masalasini hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega iqtisodiy vazifalardan biri deb hisoblaydi.

Bugungi kunda xorij tajribasida turizm sohasida malakali kadrlar bilan tayyorlash va ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining to'rtta asosiy modeli mavjud: Shvetsiya, Yevropa, Amerika va Yapon modellari[11].

Mamlakatda malakali kadr bilan ta'minlashning Amerika modeli aholining eng faol qismini boyitib, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish tizimiga asoslangan. Aholining kam daromadli qatlami esa imtiyozlar va nafaqalar hisobiga maqbul hayot darajasi bilan ta'minlanadi. Shuningdek, bu model mehnat bozori va ijtimoiy sohaning nomarkazlashuvi, ish beruvchining ishchi ustidan yuqori darajadagi nazorati va boshqa sifatlari bilan xarakterlanadi. Ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar etib belgilangan:

- Xususiy mulkning mutlaq ustunligi;
- Bozor subyektlarining maksimal erkinligini qonunchilik bilan himoyalash;
- Makroiqtisodiy siyosat yuritish orqali davlat tomonidan tartibga solish doirasini cheklash.

Biroq, shunga qaramasdan, Amerika Qo'shma Shtatlarida azaldan malakali kadr qo'nimsizlik darajasi mavjudligini e'tirof etish zarur. Masalan, so'nggi 5 yillik davrni olsak, qo'nimsizlik darajasi o'rtacha 5,1% ni tashkil etganining guvohi bo'lishimiz mumkin[13]. Bunda tarkibiy qo'nimsizlikning hissi katta bo'lishi mumkin, ya'ni mehnat bozorida ishchilar nafaqat ish joyini, balki kasbini ham



faol ravishda o'zgartiradi. Masalan, mamlakatda yil davomida ishchilarning tahminan 10 foizi o'z kasbini o'zgartiradi[9].

Shunday qilib, malakali kadrning qo'nimsizligini oldini olishning ushbu modeli aholi turmush darajasiing o'sishiga xizmat qiladi. Biroq, mamlakatda boylar va kambag'allar o'rtasida tabaqalanish tobora kuchayib, ular daromadlari o'rtasidagi farq kengayib boradi. Natijada jamiyatda tabaqalanish darajasi oshib boradi.

Yaponiyaning turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlashga qaratilgan modeli esa boshqa modellarga qaraganda tubdan farq qiladi. U quyidagi bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Umrbod bandlik tizimi;

Umrbod bandlik tizimi malakali xodimning masalan, turizm sohasida butun umri davomida bitta korxonada ishlashini va bosqichma-bosqich mansab pog'onalarida ko'tarilishini anglatadi. Shu bilan birga, ma'lumotidan qat'iy nazar, xodim o'z lavozimini pastki lavozimdan boshlaydi va bir joyda 2-3 yildan ortiq qolmasligi kafolatlanadi.

2. Mehnatga haq to'lash;

Yaponiyada turizm sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun alohida belgilangan maosh stavkalari va qat'iy tasniflar mavjud emas. Maosh tizimi quyidagi omillarga asoslangan:

- Malakali kadr maoshining ish stajiga bog'liqligi;
- Malakali kadr maoshining korxona faoliyati natijalariga bog'liqligi;
- Malakali kadr maoshining turistik xodimning shaxsiy ishdagi natijalariga bog'liqligi;
- Malakali kadr ishchi kuchining doimiy rag'batlantirilishi.

Bunda asosiy rag'batlantirishga yuqori ish haqi, muntazam bonusli to'lovlar, nafaqa to'lovlari va hokazolar kiritilgan. Bundan tashqari korxonaning moliyaviy natijalaridan kelib chiqib, bir yilda 2 marta to'lanadigan psixologik stimullar mavjud. Bular orasida "kadrni tug'ilgan kuni bilan tabriklash" metodi, "turistik xizmat nuqtalarida ochiq suhbatlar" metodi, "taklif kiritish" metodlari mavjud bo'lib, ularning maqsadi oddiy ishchilar ongida korxonaga mansubik hissini mustahkamlash va shu asosda ularning mehnat samaradorligini maksimal darajada oshirish hisoblanadi.

Nazarimizda, umuman ushbu model ham mamlakatda turizm sohasida malakali kadrlarni ish bilan ta'minlashga ijobiy xizmat qilsada, biroq turindustriya mehnat bozorida yangi ish o'rinlarining muntazam tashkil etilishiga biroz to'sqinlik qiladi. Chunki, turistik xodimning bir tashkilotda umrining oxiriga qadar ishlashining kafolatlanishi mantiqan noto'g'ri. Turistik xodimning xohishiga ko'ra ishini istalgan vaqt o'zgartirishi, ma'lum davrda nafaqaga chiqishi yoki ma'lum sabablarga ko'ra ishdan chetlashtirilishi mumkinligini ham hisobga olish zarur.

Shvetsiya davlatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, tanlangan iqtisodiy rivojlanish modeli bilan tavsiflanadi. Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlashga "Skandivaniya" yoki "Shvetsiya" modeli XX asrning 60-yillarida paydo bo'lib, cheklovchi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish orqali narxlarning barqarorligini ta'minlash va daromadlarni tenglashtirish, yuqori darajadagi to'liq ish bilan bandlik va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Modelning asosiy maqsadi aholini uzoq muddatga to'liq ish bilan ta'minlash va daromadlarini tenglashtirishdan iborat. Bunda markazlashtirilmagan bozor tizimining faoliyati va davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash ta'minlangan.

Bugungi kunda Shvetsiya turistik xodimlarni qayta tayyorlash orqali faol mehnat bozori siyosatini olib bormoqda. Buning natijasida mamlakatda turindustriya mehnat bozori siyosati xarajatlarining asosiy qismi soliq va ijtimoiy sug'urta badallari shaklida davlatga qaytariladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat malakali kadr ishsizlik nafaqasi uchun ko'p miqdordagi pul mablag'larini sarflagandan ko'ra turindustriya sohasida mavjud vaqtincha ishsizlarni qayta o'qitib, ish joyiga qaytarish, xususan, davlat subsidiyalari asosida bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish siyosatini ilgari suradi. Shuningdek, shved modeli quyidagi 3 ta asosiy prinsipga asoslanadi:

1. Turindustriya sohasida mehnatga layoqatli aholining to'liq ish bilan ta'minlanishiga erishish;



2. Aholiga ijtimoiy kafolatlar berish;
3. Farovonlikka erishish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash;

Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlashning Shvetsiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustahkam va yaxshi tashkil etilgan mehnat bozori siyosati yuqori mahsuldorlikka ega va soliq to'lovchilarning pulidan foydalanishning samarali usuli xisoblanadi. Bizningcha, kuchli ijtimoiy siyosat va mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish aynan shved modelida ko'proq o'z aksini topgan.

Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlash borasida Yevropa mamlakatlari ham o'ziga hos siyosati bilan ajralib turadi. Masalan, Fransiya va Germaniya davlatlarida turizm sohasida ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlarini juda qat'iy tartibga soluvchi mehnat qonunchligi mavjud. Kasaba uyushmalari o'zlarining pozitsiyalarini himoya qilish uchun turli xil choralardan foydalangan holda, mehnat bozorida alohida rol o'ynaydi. Xususan, Germaniya Federativ Respublikasida kasaba uyushmalari turistik korxonalarni boshqarishda ham bevosita ishtirok etadi. Ular direktorlar kengashi a'zosi bo'lishi o'laroq, muhim qarorlarni qabul qilishda bevosita ovoz berish huquqiga ham egadirlar. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta tizimi juda rivojlangan bo'lib, ishsizlar, nafaqaxo'rlar, nogironlar, boquvchisini yo'qotganlar va boshqalar uchun davlat kafolatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Yevropa mamlakatlarida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlash siyosati quyidagi asosiy yo'nalishdan iborat:

1. Turizm sohasida yangi ish joylarini, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlarini yaratishni rag'batlantirish;
2. Turistik industriyaning iqtisodiy ko'rsatkichlari past bo'lgan, shu bilan birga, muhim ijtimoiy muammolarning yechimini ta'minlaydigan iqtisodiy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash;
3. Turistik xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvoli va sanoat mansubligidan qat'iy nazar teng mehnat uchun teng ish haqiga erishish siyosatini qo'llab-quvvatlash.

Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida turindustriya mehnat bozori sohasidagi muammolarni hal qilish yo'llarini belgilaydigan va zamonaviy ish bilan ta'minlash siyosatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- Turizm sohasida yoshlarni, ayollarni va pensiya yoshidagi fuqarolarni ish bilan ta'minlash yo'li bilan iqtisodiy faol aholi sonini qo'paytirish (bunda aholining ushbu toifalari mehnatidan foydalanishni tartibga soluvchi qonunchilikni o'zgartirish, moslashuvchan bandlikni rag'batlantirish, jinsni ajratishga qarshi kurash va boshqalar);
- Turizm sohasida yoshlarning mehnat bozoriga avvalroq kirib kelishini rag'batlantirish, shuningdek, yoshi ulug' odamlarni ish bilan ta'minlash (nafaqa yoshini pasaytirish, erta nafaqaga chiqishdan bosh tortish, bandlikning moslashuvchan shakllari va boshqalar) orqali faol mehnat hayoti davomiyligini oshirish;
- Ijtimoiy sug'urta tizimini (ishsizlik sug'urtasini) o'zgartirish orqali turindustriya sohasida mavjud ishsizlarning mehnat bozoriga kirishini rag'batlantirish;
- Migratsiya siyosati va uning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasida erkin harakatlanish tizimini o'zgartirish asosida Yevropa Ittifoqi tarkibidagi turizm sohasi bilan bog'liq ishchi kuchining harakatchanligini oshirish[15].


Demak, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlash ushbu Yevropa modeli asosan ijtimoiy qatlam vakillarining turindustriyada bandligini kafolatlash va bu orqali yuqori bandlik darajasini ta'minlashga qaratilgan siyosatga asoslanadi.

Bizningcha, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlash ushbu modellari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'z hududi uchun mukammal va mos ishlab chiqilgan. Biroq, bular ichida Yevropa modelini O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun birdek ta'sir ko'rsatuvchi va natijadorligi eng yuqori bo'lgan model sifatida qarash mumkin. Sababi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning olib borayotgan turizm sohasini rivojlantirish siyosati ham aynan shu modelning mazmuniga mos keladi. Ya'ni bugungi kunda turizmni rivojlantirish borasidagi davlat siyosati yangi ish o'rinlari yaratadigan barcha turizm xo'jalik

yurituvchi subyektlarni, o'z-o'zini band qilgan fuqarolarni rag'batlantirishga, korxonalarni modernizatsiya qilish paytida bandlikning mavjud darajasini saqlab qolishga va yosh malakali kadrlarni ish bilan ta'minlayotgan korxonalarga imtiyozlar berib, qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Tadqiqotlar davomida Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan biri Germaniya Federativ Respublikasida (GFR) turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ta'minlash holatini, turizm xizmatlari sohasining aholi bandligini ta'minlashdagi va ishsizlikni oldini olishdagi rolini hamda "Yevropa modeli"ning turizm xizmatlari sohasidagi bandlikka ta'sirini o'rgandik.

Germaniya Federativ Respublikasida turizm xizmatlari sohasi iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaraladi. Germaniya federal Statistik idorasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatning yalpi ichki mahsulotining hajmi 3570,6 mlrd. yevroni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yildagiga qaraganda 3,4%ga oshganini ko'rsatmoqda[12].



1-rasm. 2023-yilda GFRsi yalpi ichki mahsulotining tarmoqlar bo'yicha ulushi³⁷⁹

1-rasmda ma'lumotlari GFRning yalpi ichki mahsulot tarkibida eng katta ulush xizmatlar sohasiga to'g'ri kelishini (70%), bunda turizm xizmatlari sohasining ulushi qariyb 25% ekanligini ko'rsatmoqda[12].

Shuningdek, GFRda turizm xizmatlari sohasi yuqori bandlik darajasi ta'minlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Germaniya Federal statistik idorasining ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2023-yilda mehmonxonalar, turoperatorlar, sayyohlik agentliklari va ovqatlanish korxonalrida jami 3,1 million kishi ishlagan bo'lsa, bu ko'rsatkich mamlakat aholisining 9,0%ini tashkil qiladi. Agar multiplikativ ta'sirini hisobga olsak, ushbu ko'rsatkich 12%ni tashkil qilishi ma'lum bo'ladi.

Tadqiqotlar Germaniyada turizm sohasining bandlik ko'rsatkichi so'ngi 5 yillik davrda ijobiy tendensiyalarga ega bo'lganligi bilan bir qatorda, hali o'z yechimini topmagan bir qancha muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Shunday muammolardan biri bu – kadrlar almashinuvidir. Ya'ni turizm sohasida band bo'lganlarning 50 foizidan ortig'i 2 yildan so'ng o'z faoliyat sohasini o'zgartirmoqda. Kadrlar almashinuvini belgilovchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Xizmat ko'rsatish sohasida, xususan turizm xizmatlari sohasida, bandlikning nufuzi nisbatan pastligi;
- Ijtimoiy sohaning yuqori sur'atlarda rivojlanishi uchun imkoniyatlarning kamligi yoki cheklanganligi;
- Bozorda kam sonli ishchilarga ega bo'lgan korxonalarning ustunligi tufayli yuqori maosh oladigan menejer lavozimlari sonining cheklanganligi;
- Turistik oqimlarning mavsumiyligi bilan bog'lik bo'lgan turistik bandlikning mavsumiy o'zgarishlari;
- Turizmda band bo'lganlarning geografik harakatchanligiga bo'lgan ehtiyoj (ishga joylashish mavsumiyligi, chet tillarini puxta egallash zarurati, xorijiy madaniyatlarni o'rganish zarurati va boshqalar bilan belgilanadi).

³⁷⁹ Muallif tomonidan tuzildi.

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>




Tadqiqotlar bugungi kunda Germaniyada eng ko‘p ish o‘rinlari turizm sohasi bilan bevosita bog‘liq umumiy ovqatlanish sohasi tomonidan taklif etilganligini ko‘rsatdi. Bunda mamlakatning umumiy ovqatlanish korxonalarini 3 ta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

- Asosan gostronomik turizmdan olinadigan daromadga yo‘naltirilgan umumiy ovqatlanish korxonalari;
- Asosan ichimliklardan olinadigan daromatlarga yo‘naltirilgan korxonalar;
- Asosan oziq-ovqat mahsulotlaridan olinadigan daromatlarga yo‘naltirilgan korxonalar[18];

Ma‘lumot uchun 2023-yilda gostronomiyadan olinadigan daromadga yo‘naltirilgan umumiy ovqatlanish korxonalarida 663 ming kishi, ichimliklardan olinadigan daromatlarga yo‘naltirilgan korxonalar 107 ming kishi, oziq-ovqat mahsulotlaridan olinadigan daromatlarga yo‘naltirilgan korxonalarida esa 700 ming kishi band bo‘lganini ta’kidlamoqchimiz.

Germaniya Iqtisodiyot va texnologiyalar Vazirligining tahliliy ma‘lumotlariga ko‘ra, Germaniyada malakali kadrlarga bo‘lgan mehmonxonalar bozorining ko‘rsatkichlari o‘sib bormoqda. Shuningdek, Yevropada xizmat safarlari soni ortib borayotganligi sababli bozorning kelajakdagi o‘rish darajasi prognoz qilinmoqda. Ammo iqtisodiy beqarorlik tufayli Yevropaning barcha mamlakatlarida ham birdek o‘rish sur‘atlari kuzatilmaydi. Biroq, hozirda Yevropa ittifoqining iqtisodiyoti eng kuchli bo‘lgan mamlakatlarda mehmonxona sektori eng faol rivojlanib bormoqda. Shubhasiz, bunday mamlakatlardan biri Germaniya hisoblanadi.




2-rasm. 2023-yilda GFRda mehmonxona va restoran ishi sohasidagi bandlik darajasi[19]

2-diagramma ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mehmonxona va restoran ishi sohasidagi bandlik darajasi gastronomik umumiy ovqatlanish korxonalarida 47%ni, ichimlik savdosi bilan shug‘ullanadigan korxonalarda 8%ni, oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanadigan korxonalarda 14%ni va boshqa korxonalarda 4%ni tashkil qilgan. Mehmonxona va restoran ishi sohasidagi bunday ijobiy ko‘rsatkichning ta‘minlanishi ulardagi kadrlarning malakasi va faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlariga hamda salohiyatiga bog‘liq.

Shu boisdan, tadqiqotlar davomida Germaniyadning turizm sohasida bandlik darajasini tahlil qilish barobarida mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimini ham o‘rganishga harakat qildik. Germaniya Savdo-sanoat palatasining 2023-yildagi turizm sohasidagi kasb-ta’limi ma‘lumotlarini

o'rgananimizda, mamlakatda oziq-ovqat texnologiyalarini o'rganish va restoran biznesini tashkil etish segmentida 57 mingdan ortiq, mexmonxona biznesi bo'yicha 40 mingga yaqin kishi o'qitilgan.



3-rasm. 2022-yilda GFRda restoran biznesi sohasidagi kasb-hunarga o'qitish tizimining tarkibi, ming kishi[20]

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda kasb-hunarga o'qitilganlar orasida oshpazlar qariyb 65% ni (37 ming), restoran menedjerlari qariyb 23% ni (13,1 ming) va restoran savdo menedjerlari esa qariyb 12% ni (6,9 ming) tashkil qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar va tahlillardan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

- Turizm Germaniyada mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng istiqbolli sohalaridan biridir. Uning rivojlanish taraqqiyotida obyektiv va subyektiv muammolar mavjudligiga qaramasdan, ushbu sohada band bo'lganlar soni yil sayin ortib bormoqda.
- Germaniyada turizm sohasidagi bandlik tarkibi turizmga kasb-hunar ta'limi tuzilmasiga mos keladi. Shuning uchun mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan mehnat resurslarining bandligini ta'minlash masalasi o'ta dolzarb muammoga aylanmaydi.

Mamlakatda turizm xizmatlari sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash mehanizmi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda Oliy ta'lim muassasalariga kabullarni xo'jalik yurituvchi subyektlarning real ehtiyojiga qarab belgilanadi. Natijada ushbu mutaxassisning ta'lim dargohini bitirishi va so'ngra ish bilan ta'minlanishi aynan o'sha xo'jalik yurituvchi subyektning zimmasiga yuklatiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatda ishsizlik muammosining oldi olinishiga xizmat qiladi.

Turizm ustun rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda mamlakat aholisini ish bilan ta'minlashning eng samarali yo'nalishlaridan biri – bu turizmdir. Uning jadal rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratishda eng muhim omillardan biri sanaladi. Shu boisdan, O'zbekiston hukumati ham turizm xizmatlari sohasini bandlik masalalarini hal qilish va ishsizlikni oldini olishda muhim potensialga ega bo'lgan iqtisodiy soha sifatida tan olishi zarur. Ushbu vazifalarni amalga oshirishdan ijobiy natijaga erishish uchun mamlakatdagi turistik korxonalarning kadrlarga bo'lgan hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini aniqlash va bunda ularning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, O'zbekiston sharoitida turizm xizmatlari sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va ta'minlash hamda, band bo'lgan aholi sonini oshirishda "Yevropa modeli"ni andoza sifatida olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, ushbu model bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan turizmni rivojlantirish borasidagi davlat siyosatiga ham, mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga ham juda mos keladi. Shu boisdan, ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash samaradorligini yangi



bosqichga olib chiqishda turizmni rolini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga ustuvor yo'nalish sifatida qarashni tavsiya etamiz:

1. Turindustriya mehnat bozoridagi mehnatga layoqatli ishsiz yoki ishsizlik xavfi ostida bo'lgan shaxslarni turizm yo'lishi doirasidakasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash;
2. Mamlakat turizm mehnat bozoriga yangi kirib kelgan malakali kadrlar larni tezkorlik bilan bandligini ta'minlashga erishish mexanizmlarini ishlab chiqish;
3. Yoshlarni, ayollarni va pensiya yoshidagi fuqarolarni turizm sohasida masalan qishloq turizmi yo'nalishi xususida ish bilan ta'minlash yo'li bilan iqtisodiy faol aholi sonini ko'paytirish;
4. Yoshlarning turizm mehnat bozoriga avvalroq kirib kelishini rag'batlantirish, shuningdek, yoshi ulug' odamlarni ish bilan ta'minlash (nafaqa yoshini pasaytirish, erta nafaqaga chiqishdan bosh tortish, bandlikning moslashuvchan shakllari va boshqalar) orqali faol mehnat hayoti davomiyligini oshirish;
5. Mamlakatda aholi bandligini ta'minlashning samarali yo'llaridan biri sifatida turistik xizmatlar sohasiga asosiy e'tiborni qaratish;
6. Turizm xizmatlari sohasidagi kadrlar qo'nimsizligini bartaraf etish yo'llarini izlab topish, bunda sohadagi mavsumiylik masalasini hal qilish;
7. Aholi va ishchi kuchining turizm bilan bog'liq geografik harakatchanligini ta'minlash;
8. Aholiga respublika turistik hududlaridagi real bo'sh ish o'rinlari to'g'risida onlayn axborot xizmatlarini takomillashtirish;
9. Davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga imtiyozli davlat kreditlari va subsidiyalarini berish orqali turizm sohasining rivojlanishini rag'batlantirish.

Shunday qilib, turizm sohasining faoliyat turlari va kadrlar malakasi darajasi bo'yicha bandlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish bilan birga, o'quv jarayonining mazmuni va texnologiyasiga ayrim o'zgartirish kiritish zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Bunda eng avvalo, mamlakatda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holatini o'rganib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/mact/-512233>
2. Лычак Я.Д. Формирование ключевых квалификаций специалистов сферы туристского сервиса на основе интенсификации обучения: Дисс. ...канд.пед.наук: 13.00.08. 2009 г. – с.34 с.
3. Katerina Berezina, Cihan Cobanoglu, Brian L. Miller, Francis A. Kwansa, (2012), "The impact of information security breach on hotel guest perception of service quality, satisfaction, revisit intentions and word-of-mouth", "International Journal of Contemporary Hospitality Management" maqolasi, Vol. 24 Iss: 7 pp. 991 – 1010. <http://dx.doi.org/10.1108/09596111211258883>
4. Aleksa S. Vucetic, (2018) "Influence of specialized hotels on employees' perception of abuse in the selective tourism destination", International Journal of Contemporary Hospitality Management, Vol. 30 Issue: 2, pp.740-756, <https://doi.org/10.1108/IJCHM-08-2016-0434>.
5. Очилов А.О. Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш. DSc диссертацияси автореферати. – Тошкент., 2018. – 89 б.
6. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. – Сам.: Зарафшон, – 2017. – Б.181-200.
7. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. – Сам.: Зарафшон, – 2017. – Б.181-200.



8. Мухаммедов М.М.,” Таълим – тараққиёт таянчи” “Зарафшон” газетаси 2018, 17-феврал, 20(22.980)-сон.
9. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. – Сам.: Зарафшон, – 2017. – Б.181-200.
10. Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш. DSc диссертацияси автореферати. –Сам., 2017. –78 б.
11. Ибрагимов Н.С.Туристик ҳудуд барқарор рақобатбардошлигига эришишнинг илмий асослари. DSc диссертацияси автореферати. –Сам., 2020. –89 б.
12. Дружинина, В.В. Обеспечение сбалансированности местного рынка труда: зарубежный опыт / В.В. Дружинина // Научный Вестник Херсонского государственного университета. –2014.– № 6. – С. 124–128.
13. www.knoema.ru xalqaro statistik rasmiy veb sayti ma'lumotlari (murojaat qilingan sana 14.11.2023-yil, soat 23:05).
14. Лукьянова К.К. Зарубежный опыт регулирования занятости населения // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». 2016. Т. 10, № 3.
15. Туленков М.В. Организационно-управленческие основы регулирования занятости в Германии / М.В. Туленков // Бюл. ИПК ГСЗУ. – 2004. –№ 1. – С. 50–54.
16. 16.Germaniya Federal statistik idorasining rasmiy sayti. <https://www.destatis.de> (murojaat qilingan sana 14.04.2024-yil, soat 23:05)
17. 17.Germaniya Federal statistik idorasining rasmiy sayti. <https://www.destatis.de> (murojaat qilingan sana 14.04.2024-yil, soat 23:05).
18. Federal bandlik agentligining rasmiy veb sayti. <http://statistik.arbeitsagentur.de> (murojaat qilingan sana 17.04.2024-yil, soat 20:48).
19. Federal bandlik agentligining rasmiy veb sayti. <http://statistik.arbeitsagentur.de> (murojaat qilingan sana 17.04.2024-yil, soat 20:48).
20. Federal bandlik agentligining rasmiy veb sayti. <http://statistik.arbeitsagentur.de> (murojaat qilingan sana 17.04.2024-yil, soat 20:48).



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024

© Materiallar ko‘chirib bosilganda « “Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93-718-40-07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz : Toshkent shahar,
Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.